XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-47-112-7-104-K/21 Toyloq tuman hokimligi

Toyloq tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuniga hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining qirq yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi), xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi qaroriga muvofiq, Samarqand viloyati Toyloq tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 115 345,5 mln. so‘m, xarajatlari 166 143,8 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 50 798,3 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar:

2022-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 50 798,3 mln.so‘mga tasdiqlanganligini qabul qilish:

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi 1 567,4 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

6. Budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armasi tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

7. 2022-yil uchun tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining eng kam miqdori 1 181,0 mln.so‘m qilib belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari tuman Kengashini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini tuman budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

9. Qonunga muvofiq, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat obyektlarini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig‘i;

yig‘imlar;

mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq:

v) viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining 45 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining 50 foizi tuman budjetida qoldiriladi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘ining 20 foizi tuman budjetida qoldiriladi.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xo‘jamurodov), tuman Moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuamn Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov) va mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

budjetdan mablag‘ oluvchilarning birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xo‘jamurodov), tuman Moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)ga:

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

12. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xo‘jamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengashi Raisi **B.Babonazarov**

Халқ депутатлари Тойлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-112-7-104-K/21-сон қарорига
1-илова

2022-yil uchun Samarqand viloyati Toyloq tumanining budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Жами
ЖАМИ		**115 345,5**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	20 878 650,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 953 500,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 954 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 912 000,0
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 479 000,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 689 000,0
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	10 180 000,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	978 100,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 422 000,0
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	3 726 400,0
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	8 624 000,0
12	Yig‘imlar	1 096 000,0
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	28 800,0
14	Alkogol mahsulotlariga aksiz solig‘i, shu jumladan pivo	12 650 000,0
15	Mobil aloqa xizmati	7 207 000,0
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	13 567 000,0

Халқ депутатлари Тойлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-112-7-104-K/21-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun Samarqand viloyati Toyloq tumanining hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**166 143 763,0**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	7 543 728
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	12 490 719
3	Tibbiyot birlashmasi	54 646 309
4	Madaniyat bo‘limi	4 769 240
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 426 949
6	Irrigatsiya bo‘limi	811 591
7	Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	2 962 832
8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 211 899
9	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	654 765
10	Moliya bo‘limi	783 617
11	Hokimiyat	77 474 060
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Toyloq tumanidagi muassasalar	497 382
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	166 375
14	Mahalla va oilani qullab-quvvatlash bo‘limi	704 297